

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

7-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 7 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Норов Шухрат Сувонович</i> МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В ИНТЕГРАЦИИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА	9-14
<i>Nazirxo'jayev Muhammadalixo'ja Qosimxo'jayevich</i> 1945-1950-YILLARDA ANDIJON VA FARG'ONA VILOYATLARIDA HARBIY ASIRLARINING QURILISH VA XALQ XO'JALIGI ISHLARIGA JALB ETILISHI TARIXIDAN	15-22
<i>Xujaniyazov Uktam Eshbaevich</i> QORAQALPOG'ISTON DAVRIY MATBUOTINING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991-2018).....	23-27
<i>Toirjonova Ruxsora Shaxobiddinovna</i> SOVET DAVRIDA VAQF MULKLARI TAQDIRI VA DINIY MUASSASALARGA BO'LGAN MUNOSABAT	28-31
<i>Aytmuratova Janilsin, Quvvatova Charos</i> THE ROLE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL PUBLIC EDUCATION, LITERATURE, AND ART	32-36
<i>Rahimova Zeboxon O'ktam qizi</i> XORAZM HUDUDIDAGI TARIXIY QAL'ALAR REKONSTRUKSIYASIDA 3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	37-42
<i>Aytmuratov Jalgas, Doshniyazov Raxat</i> QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MANBALARI	43-49

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i> O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANISHI VA AGLOMERATSIYALARNI SHAKLLANISH JARAYONLARI	50-57
<i>Amonov Mehridin Oromiddinovich</i> TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDAGI RAHBARLIK USLUBLARI	58-63
<i>Shukurov Ikrom Abdurashitovich</i> TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHIDA TURISTIK FIRMA VA TASHKIOTLAR TOMONIDAN SOTILGAN SAYYOHLIK YO'LLANMALARINING TA'SIRINI TAHLIL ETISH	64-69

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Karimbayeva Salomatxon, Mirzaxmedov Abdurashid</i> IJTIMOIY TOLERANTLIKKA TA'RIF	70-74
<i>Qayumova Aziza Toshmuradovna</i> IBN XALDUN IQLIMLAR NAZARIYASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI.....	75-78
<i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i> SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGI KONTEKSTIDA "O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASIDAGI G'OYALARNING IJTIMOYIY FALSAFIY TAHLILI	79-85

<i>Kubatov Shahobjon</i> 2016-2024-YILLARDA O'ZBEK JAMIYATI TAFAKKURIDA DAVLATNING IJTIMOIIY FUNKSIYALARI TAHLILI	86-96
<i>Abduraxmonov Is'haq, Jurayeva Rayxona</i> YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	97-100
<i>Raximova Yulduz Dilmurod qizi</i> ISLIM FALSAFASIDA INSON TALQINI	101-104
<i>Achilov Firdavs Nasritdin o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIY QIYOFASINI YUKSALTIRISHDA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TA'LIMOTINING AHAMIYATI	105-108
<i>Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich</i> DEMOGRAFIK JARAYONLAR, MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYANING MADANIYATLARARO DIALOGGA TA'SIRI.....	109-113
<i>Хамдамов Бехзод Хабибович</i> ФИЛОСОФИЯ ЛИЧНОСТИ И СУДЬБЫ В «БОБУРНАМЕ»	114-118

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Mamadaliyeva Odinaxon</i> DAVLAT TILIDA SIFAT VA SERTIFIKATLASH ATAMALARI IZOHLI LUG'ATINI YARATISH ZARURATI	119-125
<i>Алиева Эльвина, Расулова Дилбар</i> ИЗУЧЕНИЕ КОНВЕРГЕНЦИИ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ НА МАТЕРИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА	126-134
<i>Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</i> LEKSIKOGRAFIYADA DARAJALANISH QONUNIYATINING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI	135-144
<i>Qodirova Barno Ibragimovna</i> O'ZBEK FILOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA -IZM QO'SHIMCHASINING ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI	145-149
<i>Tursinbaev Ilham Po'latbay o'g'li</i> BOLALAR ADABIYOTIDA POEMANING JANRIY XUSUSIYATLARI	150-154
<i>Abdurahmonova Farangiz, Xudoymurodova Xurriyat</i> "SAG'RI TERI TILSIMI" FALSAFIY ROMANIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRINING BADIY TALQINI	155-158

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Yunusov Xaydarali Muratovich</i> YEVROPA ITTIFOQI HUQUQINING ASOSIY PRINSIPLARI	159-168
<i>Zokirov Sherzod</i> O'ZBEK XONLIKLARIDA INSON HUQUQLARINING TA'MINLANISHI: FUQAROLAR MUHOJIRATLARI BILAN ISHLASH VA U BO'YICHA NAZORATNI AMALGA OSHIRISH MISOLIDA	169-176
<i>Жураев Шерзод Юлдашевич</i> ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА ЗАЩИТЫ ДОВЕРИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	177-185

<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARIDAN CHEKINISHNI XALQARO STANDARTLARDA TARTIBGA SOLINISHI	186-192
<i>Мадаминова Дилафруз, Авазбекова Диёрахон</i> СОПРИКОСНОВЕНИЕ ИСЛАМСКИХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ В ВОПРОСАХ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ОПЕКИ НАД РЕБЁНКОМ	193-202
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	203-209
<i>Мукумов Бобур Мелибой угли</i> ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЭКСПЕРТИЗА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВА, БИЗНЕСА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА	210-214
<i>Mamatmurodov Farrux Farhod o'g'li</i> FUNDAMENTAL DIFFERENCES AND ANALYSIS OF THE ORGANIZING PRINCIPLES OF ISLAMIC FINANCE AND TRADITIONAL FINANCE. IN THE EXAMPLE OF ISLAMIC BANKS AND TRADITIONAL BANKS	215-222
<i>Yarlakabov Sherali</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASH HUQUQIY ASOSLARINING NAZARIY JIHATLARI	223-228
<i>Боймурзаев Жасурбек Бахтиярович</i> ЗНАЧЕНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОПЕРАТИВНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В БОРЬБЕ С НАРКОТИКАМИ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	229-234
<i>Xadjiyev Azizbek Kadambayevich</i> "IJTIMOIY ADOLAT" TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBI VA XALQARO QONUNCHILIK HUIJATLARIDA TUTGAN O'RNI	235-240
<i>Abulxayrov Rustamxon Ibodullayevich</i> PORTLASHDAN KEYIN KO'ZDAN KECHIRISH DAVOMIDA OLINGAN ASHYOVIY DALILLAR BO'YICHA TAYINLANADIGAN PORTLASH-TEKNIK VA PORTLOVCHI MODDALAR EKSPERTIZALARI HAL ETADIGAN MASALALAR	241-249
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhaiyo Tojjiyevna</i> IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	250-256
<i>Menglikulov Xayrulla Aliqulovich</i> OLIY O'QUV YURTIDA JISMONIY TARBIYANING TASHKILY SHAKLLARI	257-263
<i>Jurayeva Balxiya Farhod qizi</i> ROBOTOTEKNIKA DARSLARIDA STEAM – TA'LIM YONDASHUVINING AHAMIYATI	264-270
<i>Nasritdinova Madina Nurullayevna</i> ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING BADIIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI TAHLILI VA SAMARADORLIK DARAJASI	271-275
<i>Charshanbiyev Namaz Maxmatmurodovich</i> KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	276-281

Received: 16 June 2025
Accepted: 5 July 2025
Published: 15 July 2025

Article / Original Paper

FROM THE HISTORY OF THE INVOLVEMENT OF PRISONERS OF WAR IN CONSTRUCTION AND ECONOMIC ACTIVITIES IN ANDIJAN AND FERGANA REGIONS (1945–1950)

Nazirkhojaev Muhammadalikhoja Qosimkhojaevich

PhD in History, Senior Lecturer

Senior Lecturer at the Department of the History of Uzbekistan, Andijan State University

Abstract. This article examines the history of the involvement of prisoners of war, particularly former soldiers of the Japanese Imperial Army, in labor activities in the Andijan and Fergana regions during the period from 1945 to 1950. Following the Second World War, the Soviet government widely utilized the labor of foreign prisoners of war to compensate for the shortage of manpower in sectors such as economic reconstruction, construction, and public infrastructure. Brought in under the guise of rehabilitation, these prisoners were deployed in local projects involving road construction, buildings, irrigation systems, and industrial facilities. Based on archival documents, eyewitness accounts, and statistical data, the article sheds light on the actual scale and conditions of this process. Some of the facilities built through the forced labor of prisoners are still in use today.

Keywords: Andijan, Fergana, prisoners of war, Japanese soldiers, construction, national economy, World War II, Soviet era, labor mobilization, archival documents, infrastructure, forced labor, postwar recovery, historical process, social impact.

1945-1950-YILLARDA ANDIJON VA FARG'ONA VILOYATLARIDA HARBIY ASIRLARINING QURILISH VA XALQ XO'JALIGI ISHLARIGA JALB ETILISHI TARIXIDAN

Nazirxo'jayev Muhammadalixo'ja Qosimxo'jayevich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), katta o'qituvchi

Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

E-mail: mangu-bek67@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1945–1950-yillar oralig'ida Andijon va Farg'ona viloyatlarida harbiy asirlarning, ayniqsa Yaponiya imperiyasi armiyasining sobiq askarlari mehnatga jalb etilganlik tarixi tahlil qilinadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish, qurilish va xalq xo'jaligi sohasida ishchi kuchi yetishmasligi tufayli Sovet hukumati xorijiy harbiy asirlar mehnatidan keng foydalangan. Asosan sog'lomlashtirish niqobi ostida olib kelingan asirlar mahalliy hududlarda yo'l, bino-inshootlar, irrigatsiya tizimlari, zavod-fabrikalar qurilishida qatnashgan. Maqolada arxiv manbalari, guvohlarning xotiralari, statistik ko'rsatkichlar orqali bu jarayonning real holati yoritiladi. Harbiy asirlarning mehnati orqali yaratilgan obyektlarning ba'zilari bugungi kungacha faoliyat yuritmoqda.

Kalit so'zlar: Andijon, Farg'ona, harbiy asirlar, Yaponiya askarlari, qurilish, xalq xo'jaligi, Ikkinchi jahon urushi, Sovet davri, mehnat safarbarligi, arxiv hujjatlari, infratuzilma, asirlar mehnati, tiklanish yillari, tarixiy jarayon, ijtimoiy ta'sir.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N02>

Kirish. AQSh va Buyuk Britaniya davlatlari singari SSSR, garchi Ikkinchi jahon urushidan g'alaba bilan chiqqan bo'lsa-da, bu davlatning iqtisodi va qishloq xo'jaligi juda tushkun holatda

bo'lgan. Bir-biriga bog'liq bo'lgan bu sohalarni ko'tarish uchun ishchi kuchi talab etilgan. Yuz minglab asirlarni ushlab turishning asosiy maqsadlaridan biri ham, ulardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish bo'lgan.

Harbiy asirlarni urush vaqtida vayron etilgan shahar va qishloqlarni qayta tiklash uchun jalb qilish bilan birgalikda urush bo'lmagan hududlarga ham qishloq xo'jaligini rivojlantirish, katta-katta obyektlarda qurilish ishlarini olib borishga, aholi uy-joy qurilishlarida, ko'mir konlarida, avtomobil va temir yo'llarini qurishga, ko'priklar, sug'orish inshootlari, to'g'onlar hamda boshqa qurilishlarga jalb etilgan. Sovet hukumati harbiy asirlarni nafaqat mehnatga jalb qilish maqsadida lagerda ushlab turish, balki oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa xarajatlarni qoplash bilan birga davlatga daromad keltirishi shart deb hisoblagan. Yapon harbiy asirlarining mamlakat iqtisodi, sanoati va qishloq xo'jaligining rivojlanishiga qo'shgan hissasi alohida e'tiborga loyiqdir. Ularning mehnati singgan va ishlagan yirik korxonalar mamlakatning turli hududlarida mavjud. Asirlar tomonidan qurilgan korxonalar, shahar va qishloqdagi binolar, yo'llar hamda boshqa inshootlar hozirgi kunlarda ham insonlar manfaatiga xizmat qilib kelmoqda. SSSRning harbiy asirlarga nisbatan siyosati, ularning mehnatidan maksimal darajada foydalanishga qaratilgan edi. Aslida, harbiy, iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun turli sohalardagi ishchi kuchidan to'liq foydalanish asosiy vazifalardan biri bo'lgan [1; C. 63.].

Adabiyotlarning tahlili. Andijon va Farg'ona viloyatlarida Yaponiya harbiy asirlarining mehnat faoliyati haqida maxsus tadqiqotlar kam, ammo umumiy kontekstda bu masala ayrim tarixiy manbalarda yoritilgan. F. Tursunov, A. Karimov, S.I. Kuznesov, N.O. Dulatbekov, S.P. Kim, shuningdek, S.G. Sidorov singari tadqiqotchilar SSSR davrida harbiy asirlar mehnatidan foydalanishni umumiy tarzda ko'rsatgan bo'lsalar-da, aynan Yaponiya asirlarining Farg'ona vodiysidagi faoliyati alohida o'rganilmagan. Shuningdek muallifning ishlari arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va guvohlarning esdaliklariga tayanadi. U konkret obyektlar misolida — zavodlar, yo'llar, shaharchalar — Yapon asirlarining ishtirokini ko'rsatadi. SSSRning rasmiy hujjatlari va xalqaro tadqiqotlar, ayniqsa Yapon va g'arbiy mualliflar asarlari bu mavzuni yanada chuqurroq ochib beradi. Mavjud adabiyotlar asosida maqolada tarixiy, ijtimoiy va mehnat aspektlari uyg'un holda tahlil qilingan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot tarixiy-huquqiy va sotsial-iqtisodiy yondashuvlar asosida olib borildi. Maqolani tayyorlashda tarixiy manba tahlili, hujjatli dalillar asosidagi empirik yondashuv, guvohliklar tahlili va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida 1945–1950-yillarda Andijon va Farg'ona viloyatlarida Yapon harbiy asirlarining qurilish va xo'jalik faoliyatidagi ishtiroki tanlab olindi.

Tahlil. Dastlab, Sovet Ittifoqi hududida harbiy asirlar mehnatidan unumli foydalanish ishlari Ikkinchi jahon urushi boshlangan vaqt, ya'ni 1939-yildan boshlab amalga oshirila boshlangan. 1939-yil 25-oktyabr kuni SSSR Ichki ishlar xalq komissarlari 0315-son buyrug'iga ko'ra, 25 mingdan ziyod polyak harbiy asirlari Gushosor mehnat jamlog'iga joylashtirilib, ularning orasidan oddiy askar va kichik zobitlar ajratilib, Novgorod-Volynskiy–Lvov oralig'idagi yo'l qurilishida ishlatilgan [2; C. 80.].

Urushda Germaniyaning mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, harbiy asirlar mehnatidan foydalanishning yana bir bosqichi boshlandi. 1945-yilning 4-iyunida Sovet Ittifoqi Davlat Mudofaa qo'mitasining "Harbiy asirlar mehnatidan tegishli joylarda foydalanish va lagerlarni moddiy-texnik jihozlar bilan ta'minlash to'g'risida"gi 8921mm-sonli qarori asosida asirga olingan 2 100 000 nafar nemis asirlari turli ishlarga jalb qilishga yo'naltirilgan. Mazkur qaror

ijrosini amalga oshirish maqsadida, SSSR Ichki ishlar Xalq komissariati boshlig'i L.P. Beriya 1945-yil 15-iyunda 00698-sonli buyruqqa imzo qo'ygan. Unga ko'ra, "Harbiy asirlarni mamlakatning turli-xil hududlariga joylashtirish tadbirlarini olib borish va ularni ishga jalb etish asnosida mehnat samaradorligini oshirish va imkon qadar ko'proq xalq xo'jaligida asirlarning mehnatidan unumli foydalanish" ko'rsatib o'tilgan. Ushbu buyruqqa asoslangan holda O'zbekiston SSR hukumati ham viloyatlarida tashkil etilgan lagerlarda saqlanayotgan asirlar mehnatidan samarali foydalanishni boshlagan [3; C. 41, 45.].

Mamlakatning g'arbidan nemis harbiy asirlarining hududlarga bo'lib ulgurmasdanoq, sharqiy mintaqadan Davlat Mudofaa qo'mitasining 1945-yil 23-avgustdagi qaroriga ko'ra, Yaponiya imperiyasining Manchuriyadagi Kvantun armiyasida xizmat qilayotgan yapon harbiylari ham, asirlar sifatida mamlakat ichkarisiga olib kirila boshlangan. Kvantun armiyasining 530 mingdan ziyod yapon harbiylari SSSRning turli ishlariga jalb etilganidan so'ng, mamlakatdagi ishchilar ko'rsatkichi 2,5 foizga o'sgan [4; C. 515–516.]. Yapon harbiy asirlarining mehnatga jalb etilishi SSSR Ichki ishlar xalq komissariatining 1945-yil 29-sentyabrdagi "Harbiy asirlarning mehnatidan foydalanish to'g'risida"gi nizomi asosida olib borilgan. O'zbekiston SSRda ham o'ndan ortiq ishlab chiqarish, sog'lomlashtirishga moslashtirilgan va maxsus gospital ko'rinishidagi harbiy lagerlar bo'lib, deyarli barcha lagerlardagi asirlar xalq xo'jaligi, qurilish va sanoat, ishlab chiqarish ishlariga jalb etilgan. O'zbekistonga jo'natiladigan harbiy asirlar asosan davolanish maqsadida olib kelingan bo'lsa-da, shart-sharoitdan kelib chiqib asirlarning jismoniy holatiga qarab ish turlariga taqsimlangan. Harbiy asirlarni mehnatga jalb etish to'g'risidagi nizomga ko'ra, asirlar O'zbekistonga olib kelinganidan so'ng, uch hafta davomida boshqa asirlarga qo'shilmagan holda, lager hududidan chiqarilmay ushlab turilgan. Mazkur vaqt mobaynida ularning mehnatidan faqat lager hududidan chiqmagan holda foydalanilgan, ichki obodonlashtirish ishlariga olib chiqilishi mumkin bo'lgan [5; C. 112–113.]. Shunday bo'lsa-da, yapon harbiylarining boshqa mamlakatning iqlimlariga moslashishi, ularga qo'yilgan ish miqdorini bajarishi qiyin kechgan. Harbiy asirlarga qo'yiladigan kunlik ish me'yori oddiy aholinikidan farq qilmagan.

O'zbekiston SSR Andijon viloyatida 26-sog'lomlashtiruv harbiy asirlar lageri tashkil etilib, lagerga davolash maqsadida olib kelingan harbiy asirlar, dastlab lagerning ichki holatini yaxshilash uchun lager va uning atrofini obodonlashtirish hamda bunga qo'shimcha tarzda lager uchun ajratilgan yordamchi xo'jalikdagi qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etilgan. Bunday qilinishining asosiy sabablaridan biri asirlarning zaifligi bo'lgan. Mazkur yerdan olingan hosil lager asirlarining o'zlariga ishlatilgan. Dastlab asirlarning mutaxassisligi hisobga olinmasdan ishlarga jalb qilingan bo'lsa, keyinroq ular orasida tekshiruv o'tkazilib, barcha asirlarning mutaxassisligi aniqlashtirib olingan va o'ziga yarasha ishga qo'yishga harakat qilingan.

Keyingi yillarda yapon harbiy asirlari kasbiy terapiya jarayonida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (paxta tolasi chiqindisidan to'qilgan poyabzal va to'r qoplar, poyabzal ishlab chiqarish)da ishlatilgan. Iste'molchi tovarlarini ishlab chiqarish, buyurtmachi tomonidan yetkazib beriladigan xom ashyo asosida amalga oshirilgan.

26-harbiy asirlar lagerida davolanib bo'lgandan so'ng asirlarni ko'proq Bekobodagi 288-harbiy asirlar jamlog'iga jo'natilgan. Bu yerda ular Farhod Gesining to'g'onini qurishda ishtirok etganlar. 1946-yildan boshlab lager ma'muriyati yirik tashkilotlar bilan shartnoma tuzgan holda asirlarning bir qismini ishlata boshlagan. Lagerdagi asirlar doimiy ravishda bir

joyda ishlashmagan, shartnomalar ham shunga qarab ma'lum qisqa muddatga tuzilgan. Shunday tashkilotlardan Andijon paxta trestida 500 nafar harbiy asirlar ishlagan.

Bundan tashqari, asirlar 1946-yilda sug'orish tarmoqlarini tiklash va tozalash, 250 kishi temir yo'l ko'prigi qirg'oqlarini mustahkamlashda ishlaganlar. Yapon harbiy asirlarining ishtirokida 1945–1948-yillarda Andijon viloyati Jalolquduq tumani, Janubiy Olamushuk shaharchasini bunyod etganlar. Mazkur shaharchada ular 500 nafardan ziyod aholi istiqomat qilishi mo'ljallangan 50 ga yaqin barak tipidagi bir qavatli uylarni qurganlar, shuningdek, avtomobil yo'llari qurilishida ishtirok etib, yo'llarning umumiy narxi 54 ming so'm 54 tiyin bo'lgan [6; C. 109–110.], uzunligi 5 km keladigan Oyim–Qo'rg'ontepa yo'lida 5 ta ko'prik, uzunligi 6,8 km bo'lgan Oyim–Dardoq yo'lida esa 5 ta ko'prik bunyod etganlar.

Shaharchada yaponlar tomonidan bunyod etilgan Madaniyat saroyi, tibbiy shifoxona va maktablar bor. Mazkur aholi istiqomat qilish uylaridan, tibbiy shifoxona va boshqa obyektlardan mahalliy aholi hozirgacha foydalanib kelmoqda. Jalolquduq tumanining markazida, Gurunch-Mozor hududida ham yashash uchun mo'ljallangan bir qavatdan iborat barak tipidagi uylar ham yaponlar tomonidan qurilgan [7; 6-varaq.].

Shu yerda tug'ilib o'sgan, 1966-yilda Jalolquduq tumani Janubiy Olamushuk shaharchasi "Birlashgan" mahallasida tug'ilgan Sirojiddinov Hakimjon hojining guvohlik berishicha, uning dadalari Mahsumhoji ota ularga brigadir bo'lib ishlagan. Uzoq yillar Qilich mozor ziyoratgohi masjidida imom muovini vazifasida (vafot etgunicha) ishlagan. Mahsumhoji ota shunday eslaydi: "Bu yerga 700 nafar yapon harbiy asirlari olib kelingan. Biz birgalikda yangi yerlarni o'zlashtirardik, sharoitlar og'ir edi — bu esa o'z-o'zidan shundoq ham holdan toygan yapon harbiy asirlarining sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelar edi. Mahalliy aholi ularga rahmi kelganidan non, turshak, qurt, choyni ular yuradigan yo'llarga qo'yib ketishar edi. Biz "Neftestroy" qurilishida birga ishlaganmiz, hatto yaponlarning ba'zi "kunichiwa", ya'ni salom; "arigato" — rahmat; "sayonara" — ko'rishguncha; "arigato gozaimasita" — minnatdorman kabi so'zlarini eslayman. Yaponlar ham bizning "rahmat", "salom", "ketdik", "xayr" kabi so'zlarimizni bilishgan. Tibbiy yordam ko'rsatilishiga qaramay, bulardan to'rt nafari vafot etdi va shu yerlarda qolib ketishdi" [8].

2002-yilda Yaponiyadan 1945–1949-yillarda, 26-harbiy asirlar jamlog'ida harbiy asir bo'lgan fuqarolar va ularning yaqin qarindoshlari Andijonda vafot etib shu yerda dafn etilib qolib ketgan vatandoshlarini ziyorat qilish maqsadida Jalolquduq tumaniga kelganlarida, Mahsumhoji ota o'sha vaqtda birga ishlagan yapon do'stlari bilan ko'rishadi. Oradan 50 yildan ziyod vaqt o'tishiga qaramay, yaponlar ham u kishini tanishadi [9].

Tarixchi olim, t.f.d., prof. Rustam Shamsutdinovning eslashicha: "Yapon harbiy asirlari Andijon shahriga O'sh tarafdan kiraverishda, ruslar qabristoni orqasida Andijon shahar suv tozalash hovuzlari ham qurilishida ham mehnat qilganlar. Bu suv tozalash inshooti har biri diametri 60–70 m atrofida bo'lib, oqova suvlar shaharga kirishdan oldin mazkur hovuzlarda tindirilib, tozalanib, ichishga yaroqli holga kelganidan so'ng aholiga taqsimlangan. Ushbu suv inshootlari Andijon suv ombori qurilib, katta quvurlar orqali shahar aholisi ichimlik suvi bilan ta'minlangunicha xizmat qilgan. 1970–1980-yillarga kelib bu quduqlarga bo'lgan ehtiyoj kamaygani bois hovuzlar ishlatilmay qo'yilgan. Yaponlar tomonidan qurilgan hovuzlar 40 yil mobaynida aholiga beminnat xizmat qilib kelgan. Hovuzlarni borib ko'rganimizda, ular o'z davrining zamonaviy texnologiyalari asosida armatura temirlaridan to'qilgan holda beton

holatiga keltirilib, mustahkam qurilganini olingan suratlardan ham ko'rish mumkin. Hozirgi kunda u yerlarda namunaviy uylar qad rostlagan" [10].

Andijon viloyati Izboskan tumani Chuvama qishlog'idagi 26-harbiy asirlar sog'lomlashtiruv jamlog'ining boshqarmasida saqlangan yapon harbiy asirlari hududni obodonlashtirishda, kuz mavsumidagi dehqonchilik hosillarini yig'ib olishda ham ishtirok etganlar.

Chuvama qishlog'ida yashovchi 80 yoshli Erkinboy hoji Qodirov bilan suhbatlashganimizda u shunday eslaydi: "Biz yosh bola edik, chamasi 5–6 yoshlar atrofida, aqlimizni tanib qolgan edik har holda. Tentaksoy bizga yaqin bo'lganligi uchun biz bolalar soyga borib, urushda asirga tushgan yapon, italyan, nemis asirlarini tomosha qilar edik. Ularni qo'riqchilar doim nazorat qilib, miltiqlar bilan qo'riqlab yurishar edi. Asirlar yelkalarida tosh tashib, soy ustlariga ko'prik qurishar edi. Biz asirlarni qo'riqlayotgan askarlardan qo'rqib, go'yo ko'rib qolsa otib tashlashi mumkin deb o'ylab tomosha qilar edik. Yaponlarning yordami qishloq aholisiga ko'p tekkan. Ular ko'proq qirg'iz yoki qozoqqa o'xshab ketardi, faqat kiyimlari boshqacha — sarg'ish jigarrang, bosh kiyimlari ham kichkinagina edi. Yozda ko'proq o'zlari yasab olgan yog'och shippaklarda yurishardi, tosh yo'lda yurib ketishayotganida yog'och shippaklarining tovushi eshitilardi, shundan yaponlar kelayotganini bilardik. Ular nihoyatda mehnatkash xalq edi" [11].

Shu qishloqda istiqomat qiladigan Otaxonova (Uvaysinova) Sharifaxon ota-onasi Uvaysinov Qamariddin hoji, Ismoilova Salomathonlardan eshitganlari bo'yicha shunday eslaydi: "Ba'zan qishloqda erkaklar deyarli qolmaganidan (borlari yoshi keksa otaxonlar bo'lib, yoshlar barchasini urushga olib ketishgan deyishardi), qishloq oqsoqollari lagerga borib askarlardan yapon asirlaridan berib turishlarini va ular bizga qabr qazib berishda yordamlashishini so'rab borishardi. Lager komandirlari ham vaziyatni to'g'ri tushunishardi va ko'p hollarda 3–4 kishidan iborat yaponlarni yordamga jo'natishardi. Yaponlarni askarlar nazoratida qabristonga olib borilganda, ularga qishloq oqsoqollari qabr qazishni ko'rsatib turishar, ular esa qazishardi. Ularning yordamidan xursand bo'lgan otaxon va onaxonlar yaponlarni ovqatlar bilan mehmon qilishardi, ayniqsa ular guruchli taomlarni juda yoqtirar edi. Ular xursand bo'lganidan ta'zim qilishar va raqsga tushib bergan holatlari ham bo'lgan. Eshimda, ular bo'ylari kichkina bo'lishiga qaramay juda chaqqon edilar. Biz nemislardan qo'rqar edik, biz yosh bola bo'lganimiz uchun bizning ko'zimizga barchasi nemis bo'lib ko'rinardi. Keyinroq bu yerlarga tuzilishi boshqacha, o'zimizning odamlarga qisman o'xshab ketadigan, bo'ylari pastroq asirlarni olib kelishdi. Keyin bilsak, ular uzoq Yaponiyadan kelgan yaponlar ekan. 1945-yilda yaponlar jamlog'iga "Ko'shnareko" (famiyasi shunaqa bo'lsa kerak) degan katta ofitser kelib rahbarlik qilganligini yoshi kattalar aytib yurishardi" [12].

Yapon harbiy asirlari lagerga ajratilgan yordamchi xo'jalik yerlarini o'zlashtirishda, hamda uning atrofidagi aholi yashash uylarini va yo'llar qurilishlarida ishtirok etganlar. Shuningdek, kolxozlarga yollanma ishchilar sifatida olib chiqilib ishlatilgan. Jumladan, uzunligi 4 km bo'lgan Qo'qon qishloq–Chuvama yo'lida 4 ta ko'prik, hamda uzunligi 10 500 metr bo'lgan Baytoq–Lug'umbek avtomobil yo'li qurilishlaridir [12]. 1945-yilning ikkinchi yarmiga qadar 26-sonli sog'lomlashtirish jamlog'ida mehnatga layoqatli harbiy asirlarning soni ko'p bo'lgan, ammo ular ishlashi uchun keng ko'lamlari ishlarga jalb qilinmagan. Ularni ishga jalb qilish maqsadida davolanib bo'lgan 1200 kishidan iborat mehnatga layoqatli harbiy asirlar 288-harbiy ishlab chiqarish jamlog'iga jo'natilgan [13; C. 433.].

Mamlakatning barcha harbiy lagerlarida harbiy asirlar olib kelingani bilan ularning mehnatidan foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Harbiy asirlar ixtisosligiga qarab ajratilib, o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng komissiya nazoratida ularga darajalar berilgan. So'ng guruhlar va rotalar tashkil etilib, hududlar bo'yicha ishlarga taqsimlangan. Asirlarni ishga olib chiqish va ishlash jarayonida ularga askar va zobitlardan, asirlarning tartibni buzmay ishlashi va qochib ketmasligi uchun qo'riqchilar tayinlangan. Lagerda asirlar bo'sh qolishlariga yo'l qo'yilmagan, ishning samarali va unumli bo'lishi uchun ularga doimo ish uchun kerak bo'ladigan qurilish materiallari va asboblari yetkazib turilgan. Bu ishlar natijasida lagerlardagi asirlarning mehnat unumdorligi oshgan.

Mazkur jadvalda asirlarning mehnatidan foydalanishda erishilgan ko'rsatkichlar ko'rsatilgan [14; C. 577].

T/r	Mehnat turlari	1946-yil	1947-yil
11	Mehnat fondining ulushi foizda	95	96,1
22	Mehnat fondining pudratchi ishlarga olib chiqish foizda	86,4	86,9
33	O'rtacha mehnat unumdorligi	129,3	138,5
44	Har bir harbiy asirning kuniga o'rtacha mahsulot ishlab chiqarishi	19–84	23–72
55	Haqiqiy yalpi mahsulot (rubl'da)	5267	5691,5
66	Yalpi miqdorda rejaning bajarilishi foizda	132,9	107,1
77	Harbiy asirlarga ketadigan xarajatlarni qoplash	123	110,9

Ba'zi hollarda asirlar tomonidan ishdan bo'yin tovlash yoki zimmasiga yuklatilgan kunlik ish miqdorini bajarmaslik holatlari uchrab turgan. Bunday vaziyatda tartib buzuvchini safdan chiqarib izza qilish, hayfsan berish, gaupvahta (lager ichidagi qamoqxona)ga 20 kungacha qamab qo'yish, uch oygacha muddatga jazo bo'linmalariga o'tkazib qo'yish, yaqinlariga xat yozish huquqidan ikki oygacha mahrum qilish va hatto safdoshlariga o'rnak bo'lishi uchun ular ishtirokida harbiy tribunaldagi sud qilib jazoga tortishgacha borilgan [15; C. 172–173].

Harbiy asirlarning lagerdagi hayotida yaqinlariga xat yozish muhim rol o'ynagan. Bu harbiy asirlarning kayfiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Asirlarning o'z uylariga xat yozishlari, ularga kelgan javoblar, ularning mehnat faoliyatining ijobiy tomonga o'zgarishiga olib kelgan. Sovet Ittifoqining rahbariyati tomonidan tasdiqlangan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar harbiy asirlar va qarindoshlar o'rtasidagi yozishmalarning me'yorlarini belgilab bergan. Shuni ta'kidlash kerakki, yaqinlariga xat yozishning harbiy asirlar uchun muhimligini lager rahbarlari yaxshi bilganlar va ushbu jarayonni tashkil etish orqali o'zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, harbiy asirlarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan [16; C. 12–13].

Bugungi kunda tadqiqotchilar uchun mavjud bo'lgan arxiv materiallari nafaqat harbiy asirlarning qarindoshlari bilan yozishmalarini tashkil qilishning haqiqiy jarayonini kuzatish, balki kutilayotgan, ammo kechiktirilgan vatanga qaytish munosabati bilan ularning kayfiyatidagi o'zgarishlarni ko'rish imkonini beradi. Yozishmalarning ko'tarinki ruhda yozilganlari orqali, SSSRning asirlarga nisbatan ijobiy g'amxo'rlik qilinayotganligini namoyon qilmoqchi bo'lgan qarashlarini aniqlashga imkon beradi. Bunday qilish urushdan keyingi "Sovuqlik urushi" kayfiyatidagi davlatlarga targ'ibot qilish imkonini beradi, aslida asirlarga ijobiy g'amxo'rlik qilinmaganligini nafaqat rahbariyat, balki boshqa davlatlar ham anglab turishgan. Bu ham kommunistik targ'ibotning bir ko'rinishi edi. Harbiy asirlarning

yoziqmalarini lager ma'muriyati sinchkovlik bilan nazorat qilib, bu haqda ular muntazam yuqori tuzilmalariga xabar berib turishgan.

Harbiy asirlar tomonidan qishloq xo'jaligi texnikasi mahsulotlari, xususan, 565 ta traktorda urug' ekishga moslashtirilgan moslama, 760 ta g'o'zapoya yig'ishtiradigan texnika, 570 ta kultivator (yerga ekin ekilishi va ekilgandan keyin yumshatib beruvchi moslama), 670 ta otga urug' ekishga moslashtirilgan moslama, 530 ta yerga o'g'it soladigan qurilma, 80 ta SUZ moslamasi tayyorlangan, 1850 ta ketmon, 1000 ta yer kovlaydigan belkurak (lopatka), jami 697 234 rubl miqdordagi mahsulot ishlab chiqarilgan. Bulardan tashqari, 61 ta kompressor, 151 ta ko'chma nasoslar, 89 ta vakuumli nasos, 24 ta gidroturbinalar tayyorlangan, 4 ta turli xil press uskunalar, qishloq xo'jaligi texnikasi uchun ehtiyot qismlardan, jami 1 114 050 rubl miqdoridagi 13 350 ta lemexlar tayyorlangan, 2215 ta traktorlar uchun ehtiyot qismlar, 165 ta TP-5 avtomat qurilmalari, 6245 ta disklarni tayyorlash moslamalari, 1320 ta kultivatorlarga shtiflar, 845 ta kombayn pichoqlari, 995 ta xashak o'rish moslamalarining ustalarari ishlab chiqarilgan. Hammasi bo'lib zavod mahsulotlari qiymati 2 620 578 rubl miqdorda ishlab chiqarilgan [17; 1–7-varaqlar.].

O'zbekiston SSRning Farg'ona vodiysida yana bir 387-ishlab chiqarish mehnat lageri faoliyat yuritgan. Dastlab lager Chirchiqdagi 360-lagerning 4-bo'linmasi sifatida tashkil etilib, keyinchalik 387-lager sifatida faoliyatini davom ettirgan. Ushbu lagerda bir vaqtning o'zida nemis va yapon harbiy asirlari saqlangan.

Lagerdagi harbiy asirlar mehnatidan qurilish va ishlab chiqarish korxonalarida foydalanilgan. Ular ishlagan asosiy ish joylari:

- Kermika ishlab chiqarish korxonasida – 420 kishi;
- Oziq-ovqat sanoatiga qarashli №10 Yog' zavodida – 52 kishi;
- "O'zbekpromstroy" trestida – 352 kishi;
- G'isht zavodida – 85 kishi ishlagan.

Asirlar mehnati yordamida Gidroliz zavodi va Superfosfat zavodi bunyod etilgan [18].

Lagerning Quvasoy shahridagi bo'linmasida ham asirlar mehnatidan Quvasoy sement zavodida, shahar turarjoy va madaniyat uylarini qurishda hamda qo'shni Qirg'izistonning Qizil-Qiya shaharchasidagi ko'mir konlarida foydalanilgan. 387-lagerdagi asirlar Farg'ona shahrining bir qator binolari, Rus drama teatri, sobiq "Gidroliz shaharchasi", A.S. Pushkin (ayni vaqtda Alisher Navoiy) ko'chasidagi 2–3 qavatli aholi yashash binolarini (bu aholi yashash binolar ayni vaqtda buzib tashlangan) qurilishida qatnashganlar. Lagerning Qo'qon shahridagi yana bir bo'linmasi shaharning shimolida "Naymansoy" soyiga yaqin joyda joylashgan. Mazkur lager 3,9 gektar hududni egallagan. Hozirgi kunda ushbu hududda Farg'ona viloyat bolalar silga qarshi kurash sanatoriysi faoliyat yuritib kelmoqda. Qo'qon shahrida ham yapon asirlari tomonidan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Ular Qo'qon shahridagi superfosfat va qand zavodlarida ishlash bilan bir qatorda, hozirgi "Istiqlol" ko'chasidagi ko'p qavatli turarjoy binolarini qurishda ham ishtirok etganlar. Ularning ayrimlari saqlanib qolgan[19].

Natijalar. Lagerlardagi muntazam intizomga rioya qilish sharti qattiq nazorat ostida bo'lgan. Agar harbiy asirlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobi foizda hisoblansa, asirlar tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy mahsulotning 64 foizi nemis asirlari zimmasiga, 20 foizi yaponlarga, 10 foizi vengrlarga, 5 foizi ruminlarga, 1 foizi italyan, fin va ispan asirlari zimmasiga to'g'ri kelgan. Harbiy asirlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy

qiymati Sovet Ittifoqiga yetkazilgan zarardan 13,5 marta kam bo'lgan qiymatda, bu 679 milliard rublga teng.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, harbiy lagerlar asosan sanoat tarmoqlari yoki qazilma boyliklar ko'p hududlarga joylashtirilgan. Bundan maqsad, albatta, ularning mehnatidan unumli foydalanish bo'lgan. SSSR davridagi 4-besh yillikni tezkor holatda bosib o'tish asosiy maqsadlardan edi. Lagerlardagi va ish joyidagi sharoitlar talab darajasida bo'lmasa-da, asirlar har joyda yashash uchun kurash ma'nosida o'zlariga qo'shimcha shart-sharoit qilishga, chidab ko'nikishga va mehnat qilishga majbur bo'lganlar.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Кузнецов С.И. Проблема военнопленных в Российско-Японских отношениях после Второй мировой войны. – Иркутск: Иркут. гос. ун-т, 1994. – С. 63.
2. Джусты М.Т. Итальянские военнопленные в СССР, 1941–1954. – СПб.: Алетейя, 2010. – С. 80.
3. Военнопленные в СССР. 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – М.: 2013. – С. 41, 45.
4. Дулатбеков Н.О. Японские военнопленные в Карагандинской области. – Караганда: Болашак, 2011. – С. 515–516.
5. Ким С.П. Японские военнопленные на территории Советского Союза (1945–1956 гг.): дисс. ... канд. ист. наук: 07.00.02. – М., 2016. – С. 112–113.
6. Сидоров С.Г., Шевченко В.В. Использование труда спецконтингента в Сталинградской области в 1942–1945 годах // Вестник Волгоградского Гос. ун-та. – 2018. – №1. – С. 109–110.
7. Andijon viloyati davlat arxivi. 624-jamg'arma, 1-ro'xat, 4-yig'majild, 6-varaq.
8. Дала тадқиқотлари. Андижон вилояти. Жалолқудуқ тумани, Жанубий Оламушук шаҳарчаси. 2013 йил 27 март.
9. Шукуров С., Қодиров А. “Кунчиқар мамлакат делегациялари Андижонда” // *Андижоннома*. – 2002. – 31 май.
10. Videoyozuv. 2002 yil may. Andijon teleradiokompaniyasi tasmasi. T.f.d., prof. R.T. Shamsutdinov shaxsiy arxivi. Andijon, 2013.
11. Dala tadqiqotlari. Andijon shahri. Suhbat. 2013 yil 1 aprel.
12. Dala tadqiqotlari. Andijon viloyati. Izboskan tumani, Chuvama qishlog'i. Suhbat. 2015 yil 10 aprel.
13. Региональные структуры ГУПВИ НКВД–МВД СССР. 1941–1951: отчётно-информационные документы / под ред. Загорулько М.М. – Волгоград: Издатель, 2006. Т.5. Кн. 2. – С. 433.
14. Военнопленные в СССР. 1939–1956. Документы и материалы / сост. Загорулько М.М., Сидоров С.Г., Царевская Т.В.; под ред. Загорулько М.М. – М.: Логос, 2000. – С. 577.
15. Ходяков М.В. "Я некогда не стану другом Советского Союза": Настроение иностранных военнопленных в лагерях НКВД–МВД во второй половине 1940-х гг. // Петербургский исторический журнал. – 2014. – №1. – С. 172–173.
16. Региональные структуры ГУПВИ НКВД–МВД СССР. 1941–1951: отчётно-информационные документы / под ред. Загорулько М.М. – Волгоград: Издатель, 2006. Т.5. Кн. 2. – С. 12–13.
17. RDHA, 4p-jamg'arma, 21na-ro'xat, 422-yig'majild, 1–7-varaqlar.
18. Yaхуохон Dadaboev shaxsiy arxivi materiallari. Suhbat. 2019 yil 15 mart. Qo'qon shahri.
19. Dala tadqiqot materiallari. Qo'qon shahri. 19.03.2018.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).